TOSHKENT VILOYATI BO‘KA TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 31-oktabr | 289-10-137-Q/25 | Bo‘ka tuman hokimligi

Bo‘ka tumanidagi aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini 2026-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-98-sonli hamda 2025-yil 4-avgustdagi “Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-126-sonli farmonlariga asosan Bo‘ka tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i S.Qo‘chqorxo‘jayevning hisobotini tinglab, doimiy komissiyasining 2025-yil 15-oktabrdagi DKQ 03-01/62-25-sonli yig‘ilish bayonini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 9-bobi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Bo‘ka tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Bo‘ka tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i S.Qo‘chqorxo‘jayevning Bo‘ka tumanidagi aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini 2026-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risidagi hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 4-avgustdagi PF-126-sonli Farmoniga asosan:

xo‘jalik yurituvchi subyektlar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi

oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 3 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan qo‘llanilishi;

byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan hamda odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 7 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan tatbiq etilishi belgilanganligi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi hamda tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazining tuman hududidagi tashkilotlar bo‘yicha 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarini belgilash to‘g‘risidagi quyidagi takliflari ma’qullansin:

xodimlar soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan davlat tashkilotlarida majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining yetti foizidan oshmagan miqdorda hamda xodimlar soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining uch foizidan oshmagan miqdorida kelgusi yil uchun 99 ta ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish, jumladan:

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 7 foiz (7 kishi);

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun 20 foiz (20 kishi);

kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari uchun 44 foiz (44 kishi);

muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun 17 foiz (17 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar uchun 10 foiz (10 kishi);

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun 1 foiz (1 kishi) miqdorida ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantiriladi.

4. 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish maqsadida quyidagilar:

davlat tashkilotlari (byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlari:

zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida yigirma besh foizi miqdorida zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining tayyorligini yil boshlanishidan oldin o‘n kundan kechiktirmay ta’minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar Bo‘ka tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini xabardor qilish;

ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlashi, bu haqida Bo‘ka tumani (shahar) Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini birinchi chorak tamom bo‘lganidan so‘ng, 10 kundan kechikmay xabardor qilish;

ishga joylashtirish to‘g‘risida Bo‘ka tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar axborot taqdim etib borish vazifalari yuklatilsin.

Zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarini saqlash shartlari O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 40-moddasiga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta’minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 14-fevraldagi PQ-64-sonli qaroriga muvofiq aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo‘lgan shaxslarni ish o‘rinlarining belgilangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilish uchun ish beruvchilarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya mablag‘larini to‘lab berilishi belgilanganligi ko‘rsatib o‘tilsin.

7. Bo‘ka tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (S.Qo‘chqorxo‘jayev):

besh kun muddatda ushbu qaror nusxasini 1 va 2-ilovalarda ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazorat o‘rnatsin;

aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga qabul qilishda asossiz rad etish holatlari aniqlanganda, belgilangan tartibda chora ko‘rilishini ta’minlansin.

9. Tuman axborot xizmati (R.Qosimov), “Xalq ovozi” gazetasi (G.Yomg‘urova) mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari hamda tuman gazetasida yoritsinlar.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Turdibayev hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi S.Qo‘chqorxo‘jayev zimmasiga yuklatilsin.

Bo‘ka tumani hokimi **B.Begmatov**

Bo‘ka tumani hokimining
2025-yil 31-oktabrdagi
289-10-137-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Toshkent viloyat Bo‘ka tumanida 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun davlat tashkilotlari (byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli

RO‘YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilotning stiri	Shtat jadvali bo'yicha hodimlarning umumiy soni	shundan,	kelgusi yil uchun zahiraga qo'yiladigan ish o'rinlar soni	shu jumladan					
				nogironligi bo'lgan shaxslar soni		nogironligi bo'lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag'al oilalar reestridagi oilalarning a'zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan etim, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan shaxslar	jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar	odam savdosidan jabrlangan shaxslar
JAMI:			**6362**	**127**	**79**	**5**	**18**	**30**	**15**	**10**	**11**
1	"BO‘KA TUMANI MARKAZIY SHIFOXONA" JAMOAT BIRLASHMASI	200435505	2139	37	4	1		1		2	
2	"BOKA TUMAN 27-SONLI DAVLAT	203376624	101	1	1		1				

	IXTISOSLASHTIRILGAN UMUMIY ORTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI										
3	"BO`KA TUMAN 34-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203376632	108	2	1				1		
4	"BO`KA TUMAN 2-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203376688	147	2	1		1				
5	"BO`KA TUMAN 14-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM	203379897	104	0	1				1		

	MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI										
6	"BO`KA TUMANI OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI" DAVLAT MUASSASASI	206937983	282	16	2	1				1	
7	"BO`KA TUMAN YO`LLARDAN FOYDALANISH" DAVLAT MUASSASASI	200433950	80	1	2			1		1	
8	"TOSHKENT VILOYATI BO’KA TUMANI SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK OS	200435497	55	4	1					1	
9	"BO`KA TUMAN VETERINARIYA VA CHORVAC	200435552	24	0	1					1	

	HILIKNI RIVOJLAN TIRISH BO`LIMI" DAVLAT MUASSAS ASI										
10	"BO'KA TUMANI MAKTABG ACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI" DAVLAT MUASSAS ASI TEB	200435 591	64	2	1					1	
11	"BO`KA TUMAN 20-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSAS ASI	203376 649	62	0	1		1				
12	"BO`KA TUMAN 4-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSAS	203376 656	45	2	1		1				

	ASI										
13	"1-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203376664	82	0	1					1	
14	"BO`KA TUMAN 5-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203376671	82	0	1			1			
15	"BO`KA TUMAN 39-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203376704	80	0	1			1			
16	"BO`KA TUMAN 12-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM	203379730	60	1	1			1			

	MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI										
17	"BO`KA TUMAN 3-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203379747	89	2	1	1					
18	"BO`KA TUMAN 31-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203379754	68	0	1		1				
19	"BO`KA TUMAN 10-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203379762	55	3	1			1			

20	"BO`KA TUMAN 16-SONLI IXTISOSLASHTIRILGAN DAVLAT UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203379779	69	2	1					1	
21	"BO`KA TUMAN 32-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203379786	79	1	1			1			
22	"BO`KA TUMAN 9-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203379794	42	1	1		1				
23	"1-SONLI DAVLAT MAKTABG	203379802	77	2	1			1			

	ACHA TA`LIM TASHKILOTI " DAVLAT MUASSASASI										
24	"BO`KA TUMAN 24-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203379826	63	2	1				1		
25	"BO`KA TUMAN 44-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203379834	47	2	1						1
26	"BO`KA TUMAN 15-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSAS	203379841	77	0	1			1			

	ASI										
27	"BO`KA TUMAN 8-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203379858	60	0	1				1		
28	"BO`KA TUMAN 7-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203379865	41	0	1				1		
29	"BO`KA TUMAN 29-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203379873	54	2	1			1			
30	"BO`KA TUMAN 13-SONLI UMUMIY	203379880	34	3	1				1		

	O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI										
31	"BO`KA TUMAN 28-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206868444	31	1	1			1			
32	"BO`KA TUMAN 38-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206868452	33	2	1			1			
33	"BO`KA TUMAN 18-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206868469	39	4	1		1				

34	"BO`KA TUMAN 49-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206868491	48	1	1			1			
35	"BO`KA TUMAN 50-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206868509	43	1	1				1		
36	"BO`KA TUMAN 21-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206868516	39	3	1		1				
37	"BO`KA TUMAN 48-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM	206868524	45	2	1			1			

	MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI										
38	"BO`KA TUMAN 47-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206868548	39	0	1				1		
39	"BO`KA TUMAN 17-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206868555	49	0	1			1			
40	"BO`KA TUMAN 35-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206868570	51	0	1		1				
41	"BO`KA TUMAN	206868587	48	1	1			1			

	41-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI										
42	"BO`KA TUMAN 42-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206868594	46	1	1				1		
43	"BO`KA TUMAN 26-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206869973	43	0	1			1			
44	"BO`KA TUMAN 52-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT	206869980	43	0	1				1		

	MUASSASASI										
45	"BO`KA TUMAN 40-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206869997	53	0	1			1			
46	"BO`KA TUMAN 22-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206871394	52	0	1				1		
47	"BO`KA TUMAN 45-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206874271	36	0	1		1				
48	"BO`KA TUMAN 23-SONLI UMUMIY	206874288	51	2	1			1			

	O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI										
49	"BO`KA TUMAN 30-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206874304	40	0	1			1			
50	"BO`KA TUMAN 46-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206874311	48	1	1		1				
51	"BO`KA TUMAN 37-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206889466	37	1	1		1				

52	"12-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207010547	44	0	1		1				
53	"11-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207025701	62	1	1			1			
54	"7-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207026050	64	0	1			1			
55	"BO`KA TUMAN 10-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA	207026067	57	2	1		1				

	TA`LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI										
56	"8-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207026074	47	2	1				1		
57	"6-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207049742	37	0	1		1				
58	"9-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207049759	49	1	1			1			

59	"17-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI " DAVLAT MUASSASASI	207049781	78	1	1				1		
60	"BO`KA TUMANI BARKAMOL AVLOD BOLALAR MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	207125348	81	1	1	1					
61	4-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	207273172	39	1	1			1			
62	"14-SONLI MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207302111	32	1	1				1		

63	"5-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207302483	61	0	1			1			
64	"BO`KA TUMAN 43-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	207303173	31	1	1		1				
65	"BO`KA TUMAN 11-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	207303205	33	2	1			1			
66	"BO`KA TUMAN 33-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM	207303244	41	1	1				1		

	MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI										
67	"BO`KA TUMAN 36-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	207303363	36	0	1			1			
68	"BO`KA TUMAN 53-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	207303506	35	0	1		1				
69	"16-SONLI MAKTABGACHA TA`LIM MUASSASASI" DAVLAT MUASSASASI	306051193	52	1	1					1	
70	"BO`KA TUMANI 18-SONLI	308131567	60	1	1	1					

	DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI										
71	"BO`KA TUMANI 20-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	309589763	39	0	1			1			
72	"BO`KA TUMANI 19-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	309598848	33	0	1		1				
73	"BO`KA TUMAN 55-SONLI	309813064	29	0	1			1			

	UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI										
74	"BO`KA TUMANI 21-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	309954680	38	1	1			1			

Bo‘ka tumani hokimining
2025-yil 31-oktabrdagi
289-10-137-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Toshkent viloyati Bo‘ka tumanida 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun xodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurutuvchi subyektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli RO‘YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilotning stiri	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan,	kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlar soni	shu jumladan			
				nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar
Жами:			**7428**	**240**	**20**	**2**	**2**	**14**	**2**
1	"BUKA SPORTSWEAR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	303900927	323	6	10	1	1	7	1
2	"TASHKENT SILK PRO" MAS'ULIYATI	306529965	7105	234	10	1	1	7	1

	CHEKLANGAN JAMIYAT								